

Zakovat intellektual o'yini



11.11.2022

Zakovat intellektual o'yini

Yer resurslarini boshqarish fakultetida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida bugun "Zakovat intellektual o'yini" bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir Unversitet yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi X.Tojiev, "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Z.Abduraimovlar va "Zakovat" intellektual o'yinining tashkilotchisi fakultet Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovni H.Eshova hamda fakultet tyutrlari S.Ibragimova, Z.Xayitova D.Egamova hamkorligi otkazildi.



Ko'taringi ruxda tashkil etilgan zakovat intellektual o'yini 1-2 kurs talaba-yoshlari o`rtasida bo`lib o`tdi. Ushbu musobaqada jami 34 nafar guruh o`z jamoasi bilan ishtirok etdi. Fikr-mulohazlarga boy bo'lgan bilim bellashuvida g'olibni aniqlash biroz murakkab bo'ldi. Chunki, o'yin yakunida ikkita jamoa bir xil natija bilan tashabbusni o'z qo'llariga olishdi.



Qo'shimcha savollar berilganidan keyin "Taraqqiyot" jamoasi o'z kuchini ko'rsatdi va g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ushbu "Zakovat" intellektual o'yini barchada katta taassurot qoldirdi. Talabalarni taklifidan kelib chiqib, har hafta bir kun "Zakovat" intellektual o'yinining o'tkazish rejalashtirib olindi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti